

IX - sinf. ONA TILI VA ADABIYOT

1-variant

1.Qaysi qatorda otli so‘z birikmasi berilgan?

- A) fe’liga qarab, shahar tomon bormoq, sendan katta
- B) o‘qishda birinchi, hammadan ko‘p, qushlarning chug‘ur-chug‘uri
- C) bizning qishloq, zavq bilan gapirmoq, katta hovli
- D) kumush qish, yaxshi o‘qigan , seni izlab

2. Tobe so‘z yasama bo‘lgan bitishuv munosabatli otli so‘z birikmasini aniqlang.

- A) gullar chiroysi B) so‘zlashini tinglamoq
- C) muammoli suhbat D) ifodali gapirmoq

3. Qaysi mavzudagi insholarda biror badiiy asar va unda ishtirok etuvchi qahramonlar taqdirini tahlil qilishda o‘quvchi o‘z mustaqil fikri bilan yondashadi?

- A) adabiy mavzudagi insholarda B) adabiy-ijodiy mavzudagi
- C) erkin mavzudagi insholarda D) sinov insholarda

4. Ushbu gapdagi tagiga chizilgan so‘z tarkibida qanday qo‘sishimcha mavjud?

Biliklik keraklik so‘zug so‘zlayur.

- A) tushum kelishigi qo‘sishchasi B) jo‘nalish kelishigi qo‘sishchasi
- C) egalik qo‘sishchasi D) sifatdosh yasovchi qo‘sishchasi

5. Bildi ota ... foydasizdir qiyynamoq. Uch nuqta o‘rniga qanday tinish belgisi qo‘yish mumkin?

- A) tire B) nuqtali vergul C) vergul D) nuqta

6. Fe’l shakllaridan qaysi biri zamon va shaxs-sonni ko’rsatmaydi?

- A. Sof fe’l B.Harakat nomi C.Sifatdosh C.Ravishdosh

7. Qaysi harf til oldi, portlovchi, jarangsiz undoshni ifodalaydi?

- A) j B) t C) k D) sh.

8. ng birikmasi qaysi qatordagi so‘zlarda ajratib aytildigan n va g o‘rnida qo‘llangan?

- A) ong, bong, tong, yeng, ko‘ngil B) manglay, tanglay, tinglamoq
- C) kongress, tangens, ingliz, tanga D) ingramoq, jaranglamoq, arang

9. Qaysi qatorda tinish belgilari to`g`ri ishlataligani?

- A) yolg‘on gapiresh : albatta gunohdir B) yolg‘on gapiresh, albatta, gunohdir.
- C) yolgon gapiresh - albatta gunohdir. D) yolgon gapiresh, albatta gunohdir.

10.Yurakda orzum qat-qat , ko’nglim etadi parvoz. Ushbu gap qanday bog’lanishga ega?

- A.Teng bog’lanish B.Bog’lovchisiz bog’lanish
- C.Bog’lovchi vazifasidagi bog’lanish D.Ergashgan bog’lanish

11. Adab kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi... u mehr kattalar ko'nglida abadiy qoladi.

- Nuqtalar o'rniغا mos bog'lovchi qaysi bog'lash turiga mansub?
- | | |
|----------------------|----------------------------------|
| A. Ergashtiruvchi | C. Teng |
| B. Yuklamalar orqali | D. Ko'makchili birikmalar orqali |

12. Quyidagi qaysi gap qismlarini ham bog'langan , ham ergashgan qo'shma gaplarga aylantirish mumkin?

- A. O'qishli kitob go'zalikdir, go'zallikda ham go'zallik bor.
B. Guli yo'q bo'stondan yaproq yaxshi , foydasi yo'q yo'ldoshdan tayoq yaxshi.
C. Shuni bil , odamlar do'stlik tufayli baxtiyordir.
D. Kuz keldi, yig'im – terim boshlandi.

13. Takroriy teng bog'lovchilarni yozing.

14. Grammatik jihatdan hech bir bo'lakka bog'lanmaydigan vosita nima?

15. Quyidagi birikuvlarni o'rnini almashtiring va gap hosil qiling.

Bajarilgan topshriq. Issiq kun. Onalar va bolalar. O'qib chiqdi. Haydalgan yer . Bolalar bog'chasi .

16. Agar daraxt shoxlari yoz faslida sarg'aysa, kuz erta keladi. Sodda gap qismlarini bog'lovchi vosita qaysi?

17. Nuqtalar o'rniغا mos keluvchi bog'lovchini qo'ying. **Og'ziga kelganni demoq nodon ishi... oldiga kelganni yemoq hayvon ishi.**

18. "Choyxonada uzun bo'yli, uzun kulohli qalandar ko'zlarini yumib, qalin, yangroq ovozini baland qo'yib, Mashrabdan g'azallar o'qiydi".

Parcha qaysi asardan olingan?

- | | |
|-----------------------|-------------------|
| A) "Kecha va kunduz" | B) "Qutlug' qon" |
| C) "Mehrobdan chayon" | D) "Qiyomat qarz" |

ASOS:9-sinf II-qism, 42-bet

19."Dahshat" hikoyasi qahramoni Unsinning otasini kasbi nima edi?

- A) Cho'pon B) Savdogar C) Tegrimonchi D) Dehqon

ASOS:7-sinf 319-bet

20."Boburnoma"ning Samarqand tasvirida keltirgan Chilsutun oliy imorati qaysi bog'o'rtasida qurilgan edi?

- A) “Bog’i Maydon” B) “Bog’i Dilkusho”
C) “Bog’i Jahon” D) “Bog’i Bo’ldudur”

ASOS:9-sinf I-qism 110-bet

21.”Asar voqea-hodisalarining o’zaro shaklan joylashuvi boshqa asarlardan keskin farq qiladi. Unda go’yo bir-biri bilan bog’lanmaydigan qator hikoyalar, rivoyatlar hatto qissalar aralash tartibda kelaveradi. Ularda tasvirlangan voqea-hodisalar ham zamon, ham vaqt nuqtayi nazaridan izchil tizimga bo’ysunmaydi”

Ta’rif qaysi asar haqida?

- A) “Ufq” B) “Chinor” C) “Qutlug’ qon” D) “Oq kema”

ASOS:8-sinf II-qism 43-bet

22.Quyidagilardan Ibroyim Yusupovning o’zbek tilida nashr etilgan asarini belgilang.

- A) “Qirqqiz” B) “Mangu buloqlar” C) “Turnalar” D) “Qora tol”

ASOS: 6-sinf II-qism 151-bet

23.“Darhaqiqat, ushbu asar odamga quvvat beradigan umid, uning boshini “toshdan” qiladigan ishonch barq urib turgan haqiqiy hayot manzarasidir”. Ta’rif qaysi asar haqida?

24.“Gilam paypoq” hikoyasida o’g’il onasiga qayerdan gilam paypoq olib kelgan edi?

25. Qaysi shoир Ulug’bekni sharaflab, 4 ta qasida bitgan?

IX - sinf. ONA TILI VA ADABIYOT

2-variant

1. Quyidagi so‘zlarning qaysi birida imlo qoidasiga ko‘ra *husn-* so‘zidan so‘ng –i-unlisi yoziladi.

1. husnbuzar, 2.husnxat, 3. husnjamol, 4. husnkor.
A. 1, 2, 3, 4; B. 2, 3; C. 2, 4; D. 2, 3, 4.

2. Keltirilgan gaplarning qaysi birida ajratish, ta’kidlash ifodalangan ot qo‘llangan?

- A. Mustaqillik-oliy ne’mat.
B. Faqat Jizzax viloyatigina paxta rejasini birinchilardan bo ‘lib bajardi.
C. Shaharda ko‘rkam binolar qad rostladi.
D. O‘quvchilar fan olimpiadalariga puxta tayyorgarlik ko‘rdilar.

3.Qaysi gapda aniqlovchi uyushib kelgan?

- A. Iste’dodli adib ko’p asarlar va dramalar yozdi.
B. Undan sal nordon va xushbo’y hid kelardi.
C. O’zbekiston- yangicha taraqqiyot yo’lida.
D. Seni hur va ozod, seni kuylayman.

4. To’ldiruvchi uyushib kelgan gapni belgilang.

- A. Mutolaa inson hayotida muhim o’rin tutadi.
B. Ona so’zining o’zi har yurakka jarangli sado beradi.
C. O’tgan yoshlik va chiqqan so’zni also qaytarib bo’lmaydi.
D. Dunyoda odamlarni ko’rishdan ham buyukroq baxt bo’ladimi?

5. Uyushiq bo’lakli gapning qaysi birida umumlashtiruvchi so’z qo‘llangan?

- A. Ufqqa tutashib ketgan polizlar goh qizg’ish, goh qahrabo rangda tovlanadi.
B. Mehnatda, ijodda, san’atda, fanda kattadir yoshlarning qo’shgan hissasi.
C. Ilm, fan va fikr olami nihoyatda keng va chuqur.
D. Bemorning his-tuyg’ulari, o’y-xayollari va kelajak ishlari hamma-hammasi vrachning qo’lida.

6..Ajratilgan hol qo‘llangan qatorini belgilang.

- A. Tilning xizmat doirasi juda keng, hajmi o’lchovsiz bo’ladi.
B. Nafis chayqaladi bir tup na’matak
C. Soyda, qo’sh yong’oqning tagida, oppoq qorga ko’milib uzoq turdi.
D. Qarang buncha ham gul yaproqlari chiroqli.

7.Qaysi gapda kiritma qo‘llangan?

- A. Ko’z nurim –onam, oltin so’zim- onam
B. Tilning, hatto, tovush me’yorlari ham bizni o’qishga da’vat etadi.
C. Qisqalik, anqlik, soddalik rasmiy ish qog’ozlarining bosh belgilaridir.
D. Nahotki, daryolar oqar teskari, nahotki, odamlar kezar darbadar.

8.Berilganlarning qaysi biri ushbu gapning davomi bo’ladi.

Yozuvchi bu timsolni zo’r samimiyat va otashin ...

- A. Gap bilan tasvirlagan B. Ehtiros bilan tasvirlagan

C. G'ayrat bilan tasvirlagan D. Ustalik bilan tasvirlagan.

9.Egasi umumlashgan gapni aniqlang.

A. Shaftolizor bog'larni ko'rdim.

B. Hurmat qilsang hurmat ko'rstan.

C. Nutq yakka shaxs, juft shaxs orasida yuz beradi.

D. Musobaqada, albatta , g'olib chiqamiz.

10. Hamma, barcha, bari, butun olmoshlariga qaysi qatorda to'g'ri ta'rif berilgan?

A. Guman ma'nosini ifodalaydi

B. SHaxs, narsa, belgini jamlab keladi

C. Narsalarning so'rog'ini ifodalaydi

D. Narsalarni ko'rsatib keladi.

11. Na.. na yordamchisi yuklama vazifasida kelgan qatorni belgilang.

A. Na so'ngiga yetoldi ishning, na dunyoni anglab ulgurdi.

B. Na otam, na onam, na oilam bor..

C. Na saljuq, na Chingiz qilmadi shafqat.

D.Na sen boarding, na u bordi.

12. She`rda olmoshning qaysi turi qo'llangan?

Qalbim urmoqda shu mushdek yurakda,

Yangidan o'smoqda kichkina jiismim,

Demakki hayotim davom etmoqda,

Demakki olamda golmoqda ismim.

A. Ko`rsatish.

B. Kishilik.

C. Belgilash

D. Guman

13. Fe'llarning munosabat shakllariga to'g'ri ta'rif berilgan javobni toping?

A. Fe 'I asoslariga qo'shilib, gapda hol vazifasida qo'llanilishga xoslovchi shakllar

B. Fe 'I asoslariga qo 'shilib, gapda aniqlovchi vazifasida qo'llanilishga xoslovchi shakllar

C. Fe 'I asoslariga qo 'shilib, gapda kesim vazifasida qo 'llanishga xoslovchi shakllar

D.Fe 'I asoslariga qo 'shilib, gapda ega va to'ldiruvchi vazifasida

14. Bitishuvli birikma qaysi qatorda berilgan?

A.Bahor havosi, hovli sathi

B.Uzoqdan ko'rinmoq, mashg'ulotga qatnashmoq

C.Ziyrak bola, puxta bilim

D. Sevimli shoир, dalada uchrashuv

15. Quyidagi so'zlarning qaysi birida nuqtalar o'rniga bo'g'iz undoshi qo'yiladi?

1)musho...ada 2)qabi...lik 3)xo...ish 4)mu...lis 5)al...azar 6)gul...ayri

7)ala...siramoq 8)ta...lika 9)ya...ob

A. 1,2,3,5,8,9

B. 1,2,6,8,9

C. 2,3,5,6,7,8

D. 1,2,3,5,7,8

16. Amu –Buxoro kanali. Rahmat. Tuzukman. Berilgan gaplardan so'z-gapni ajratib yozing.

J: _____

17. Berilgan gapda murakkab kesim qaysi. Tagiga chizing. Ayozli kunlar asta-sekin o'tib borayotir.

J: _____

18. Berilgan gapdan aniqlovchini ajrating va qaysi turiga mansubligini yozing. Mehnatninig qadrini ular ham bilishsin do`stim.

J: _____

19. Bayon qilinayotgan fikrga so`zlovchining ishonch, guman, quvonch, afsuslanish munosabatlarini yoki fikrning tartibi va xulosasini bildirgan so'zlar qanday nomlanishini yozing.

J: _____

20. Isimlarning -man, -san, -dir qo`shimchalariga ega bo`lgan shakli...

J: _____

21. Quyidagi asarlardan she'riy to'plamni belgilang.

- | | |
|-----------------------|-------------------|
| A) "Kapitan Gastello" | C) "Jinoyat" |
| B) "Muqanna" | D) "Toshkentnoma" |

22. "Uloqda" hikoyasida kimning oti qozoqi ot deb ta'riflangan?

- | | |
|--------------------------|----------------|
| A) Turg'un chavondozning | C) Murodning |
| B) Salimning | D) Esonboyning |

23. "Mehrobdan chayon" romanida keltirilgan "Dunyoda hayotidan qo'l yuvg'uchidek tili uzun kishi bo'lmas" fikri kimga tegishli?

24. Muqimiyl "Sayohatnoma" asarida qaysi qishloqda selda qolganini aytadi?

25. "Ulug'bek xazinasi" romanidagi iste'dodli shoir, arslonyurak jangchi Qalandar Qarnoqiyining Vatani qayer edi?
